

**MUSTAQIL TA'LIM JARAYONIDA IJOBIY  
MOTIVATSIYANI QO'LLAB-QUVVATLASHNING  
PEDAGOGIK USULLARI**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*“Pedagogika va psixologiya” kafedrası stajyor-o'qituvchisi*

***Ko'chkinova Mahliyo Norbutayevna***

*Elektron pochta manzili: [mkuchkinova@dtpi.uz](mailto:mkuchkinova@dtpi.uz)*

*Tel: (99) 711-17-68*

***Eshmirzayeva Dilbar Sharofiddinovna***

***Panjiyeva Aziza Nomoz qizi***

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada mustaqil ta'lim jarayonida talabalar motivatsiyasini shakllantirish va uni ijobiy yo'nalishda qo'llab-quvvatlash masalalari yoritilgan. Talabalarning o'qishga bo'lgan ichki rag'batini oshirishda pedagogik yondashuvlar, innovatsion metodlar hamda o'qituvchi shaxsining roli tahlil qilinadi. Shuningdek, mustaqil ta'limda motivatsiyani pasaytiruvchi omillar va ularni bartaraf etishning samarali usullari ko'rsatib o'tiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *mustaqil ta'lim, motivatsiya, ichki rag'bat, o'quv faoliyati, pedagogik qo'llab-quvvatlash.*

***Аннотация:*** *В данной статье рассматриваются вопросы формирования мотивации студентов в процессе самостоятельного обучения и поддержания её в положительном направлении. Анализируется роль педагогических подходов, инновационных методов и личности преподавателя в повышении внутренней учебной мотивации студентов. Кроме того, выделяются факторы, снижающие мотивацию в самостоятельном обучении, и предлагаются эффективные способы их устранения.*

*Ключевые слова:* самостоятельное обучение, мотивация, внутренняя мотивация, учебная деятельность, педагогическая поддержка.

*Annotation:* This article explores the issues of developing students' motivation in the process of independent learning and maintaining it in a positive direction. The role of pedagogical approaches, innovative methods, and the teacher's personality in enhancing students' intrinsic motivation to study is analyzed. In addition, the factors that reduce motivation in independent learning and effective ways to eliminate them are discussed.

*Keywords:* independent learning, motivation, intrinsic motivation, learning activity, pedagogical support.

**KIRISH.** Zamonaviy ta'lim tizimida talabning o'quv faoliyati tobora mustaqil shaklga o'tmoqda. Bu jarayon o'z-o'zidan shaxsiy mas'uliyat, o'zini boshqarish, shuningdek, ichki motivatsiyani talab etadi. Mustaqil ta'lim jarayonida talabani o'qishga undovchi omillar kuchli bo'lmasa, o'qish jarayoni samarasiz bo'ladi. Shu bois, ijobiy motivatsiyani pedagogik yo'l bilan qo'llab-quvvatlash bugungi ta'limning eng muhim vazifalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasida mustaqil ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va talabalarda ijobiy motivatsiyani shakllantirish masalalari bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan belgilab berilgan. Ushbu hujjatlar oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, talabalarning mustaqil fikrlashi, o'z ustida ishlash madaniyatini rivojlantirish hamda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan. 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 4-moddasida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari sifatida inson manfaatlariga yo'naltirilgan ta'lim, uzluksiz ta'lim tizimi va shaxsning intellektual hamda ma'naviy salohiyatini rivojlantirish vazifalari belgilangan. Shuningdek, 30-moddada ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim olish huquqi va o'quv jarayonida shaxsiy mas'uliyatini oshirish zarurligi ta'kidlanadi. Bu esa

talabalarni o'z-o'zini rivojlantirishga, ichki motivatsiyani kuchaytirishga undovchi muhim normativ asosdir.

2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" da oliy ta'limni modernizatsiya qilish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, talabalarning mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirish va motivatsion muhitni yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Konsepsiyaning 3.1-bandida innovatsion o'qitish texnologiyalarini qo'llash, talabalarning mustaqil ta'limini rag'batlantirish, ta'lim jarayonida psixologik-pedagogik yondashuvni kuchaytirish vazifalari belgilangan. Bu esa mustaqil ta'limni faqat nazariy emas, balki psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimi orqali rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. 2022-yil 27-iyuldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 232-son farmonida talabalarning ta'lim olishga ijobiy munosabatini shakllantirish, mustaqil ta'lim uchun raqamli resurslar bazasini kengaytirish, psixologik xizmat faoliyatini kuchaytirish kabi vazifalar belgilangan. Ushbu chora-tadbirlar ijobiy motivatsiyani rag'batlantirishda pedagogik hamda tashkiliy mexanizmlar sifatida xizmat qiladi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI.**

Mustaqil ta'lim jarayonida ijobiy motivatsiyani qo'llab-quvvatlash samaradorligi, avvalo, o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan pedagogik yondashuvlar va usullarga bog'liqdir. Talabalarda o'qishga nisbatan ichki qiziqish, mas'uliyat, mustaqil fikrlash va o'zini rivojlantirish istagini uyg'otuvchi pedagogik metodlar quyidagilar hisoblanadi.

**1. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvi.** Ushbu yondashuv talabaning individual xususiyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. O'qituvchi bu usul orqali talabaning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi, ya'ni "bilish istagi"ni faollashtiradi. Masalan, talabalarga tanlov imkonini berish,

mustaqil mavzu tanlash, o'z fikrini erkin ifoda etish uchun sharoit yaratish — shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning asosiy ko'rinishlaridir.<sup>1</sup>

**2. Rag'batlantirish va ijobiy baholash tizimi.** Motivatsiyani oshirishda rag'batlantirishning ahamiyati beqiyos. O'qituvchi talabani nafaqat yakuniy natijaga, balki jarayon davomida qilgan harakatlari uchun ham ijobiy baholashi kerak. Bu usul talabaning o'z kuchiga ishonchini oshiradi, mustaqil o'qishga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytiradi. Rag'batlantirish og'zaki maqtov, qo'shimcha ball, rag'bat sertifikatini yoki guruh oldida tan olish shaklida bo'lishi mumkin.

**3. Muammoli ta'lim (problemali yondashuv).** Bu usulda o'qituvchi talabalarga tayyor bilim emas, balki muammo vaziyatlarini beradi. Talaba muammoni hal qilish jarayonida izlanadi, tahlil qiladi, o'z fikrini himoya qiladi — bu esa tadqiqotchilik va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Natijada talaba o'z bilimini izlash jarayonidan zavq oladi, ya'ni ijobiy motivatsiya paydo bo'ladi.


**4. Interfaol metodlar (hamkorlikda o'qitish).** “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Sinkveyn”, “Debat” kabi interfaol metodlar talabalarning darsdagi ishtirokini faollashtiradi. Bunday mashg'ulotlar jarayonida talaba nafaqat o'z fikrini aytadi, balki boshqalarning nuqtayi nazarini ham hurmat qilishni o'rganadi.

Hamkorlikda ishlash orqali u o'zini jamoaning muhim a'zosi sifatida his etadi, bu esa ijtimoiy motivatsiyani oshiradi.

**5. Refleksiya va o'z-o'zini baholash.** Har bir dars yoki mustaqil topshiriqdan so'ng talabaga o'z faoliyatini tahlil qilish imkoniyatini berish

---

<sup>1</sup> Kochkinova M. THE IMPORTANCE OF THE IMAGE OF A MODERN TEACHER IN THE PROFESSIONAL PREPARATION OF A FUTURE TEACHER //Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations. – 2025. 470. – №. 1. – C. 614-621.



zarur. Refleksiya jarayonida u o'z yutuqlari, kamchiliklari va kelajakdagi maqsadlarini anglaydi. Bu o'z-o'zini anglashni chuqurlashtirib, ichki motivatsiyani mustahkamlaydi.

#### **6. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.**

Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli resurslar, onlayn platformalar va elektron ta'lim vositalari motivatsiyani oshirishda muhim o'rin tutadi. Masalan, interaktiv testlar, onlayn loyiha topshiriqlari, video darslar va gamifikatsiya elementlari (ball, reyting, bosqichlar) talabalarning o'qishga qiziqishini kuchaytiradi.

#### **7. Ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash.**

Talabalarning mustaqil ta'limdagi muvaffaqiyati nafaqat o'qituvchi, balki butun ta'lim muhitiga bog'liqdir. Psixologik xizmat, kuratorlik tizimi, mentorlik dasturlari — talabalarning ijobiy ruhiy holatini saqlash, o'ziga ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mustaqil ta'lim jarayonida ijobiy motivatsiyani qo'llab-quvvatlashning pedagogik usullari — bu shunchaki o'qitish texnologiyalari emas, balki talabaning shaxsiy o'sishiga, o'z ustida ishlashiga va o'zini namoyon etishiga yo'naltirilgan psixologik-pedagogik jarayondir.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, muammoli ta'lim, rag'batlantirish tizimi va interfaol metodlar talabaning bilim olishga bo'lgan ichki ehtiyojini kuchaytiradi. Natijada, talaba o'qishni majburiyat emas, balki o'z rivoji uchun qadriyat sifatida qabul qiladi — bu esa haqiqiy ijobiy motivatsiyaning eng yuqori bosqichidir.

#### **NATIJA VA MUHOKAMALAR:**

O'tkazilgan tahlillar va kuzatuvlar natijasida aniqlanishicha, mustaqil ta'lim jarayonida ijobiy motivatsiyani shakllantirish o'qituvchining tanlagan pedagogik yondashuviga bevosita bog'liqdir. Tadqiqot davomida talabalarning o'qishga nisbatan munosabati, rag'batlantirish tizimi va mustaqil ishlash samaradorligi o'rganildi.

So'rovnoma natijalariga ko'ra, talabalarning 74 foizi rag'batlantirish va ijobiy fikr bildirish ularning o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirganini ta'kidladi. 18 foiz talaba muammoli ta'lim usullari (masalan, mustaqil izlanish, keys tahlili, interfaol mashg'ulotlar) motivatsiyani sezilarli darajada kuchaytirganini bildirgan. Faqat 8 foiz respondent o'z motivatsiyasida sezilarli o'zgarish bo'lmaganini qayd etdi. Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, pedagogik rag'batlantirish, hamkorlikda ta'lim va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv usullaridan foydalanish mustaqil ta'limni samarali tashkil etishda eng muhim omil hisoblanadi. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi ijobiy psixologik muhit, ishonch, erkin fikr almashinuvi ham ichki motivatsiyani barqarorlashtiruvchi omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, ba'zi holatlarda talabalarning mustaqil ishlashga bo'lgan qiziqishi tashqi motivatsiyaga (baholash, topshiriq muddati, kredit tizimi) bog'liq bo'lgan. Bu esa o'qituvchining diqqatini ichki motivatsiyani shakllantirishga — ya'ni talabaning o'qishdan zavq olishiga, o'zini rivojlantirishga intilishiga qaratish zarurligini ko'rsatadi.

E. Torrensning ijodiy fikrlash nazariyasiga muvofiq, motivatsiya faqat tashqi rag'bat bilan emas, balki kreativlik va o'zini anglash orqali mustahkamlanadi. Shu bois, mustaqil ta'lim mashg'ulotlariga ijodiy yondashuvni, muammoli topshiriqlarni, o'z fikrini himoya qilish mashqlarini kiritish samarador natija beradi.

**Natijalar shuni ko'rsatadiki:**

1. Talaba mustaqil faoliyatda o'z maqsadini aniq belgilaganida motivatsiya darajasi yuqori bo'ladi;
2. Rag'batlantiruvchi baholash tizimi (ball, maqtoov, sertifikat) o'qishga ijobiy munosabatni kuchaytiradi;
3. Mustaqil ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish (onlayn platformalar, interaktiv topshiriqlar) o'qishga qiziqishni oshiradi;

4. Psixologik qo'llab-quvvatlash va o'qituvchining individual yondashuvi motivatsiyani uzoq muddatda saqlab turadi.

Shuningdek, kuzatish natijalariga ko'ra, mustaqil ta'lim samaradorligi o'qituvchining pedagogik mahorati va psixologik kompetensiyasi bilan chambarchas bog'liq. O'qituvchi talabani nazorat qilish emas, balki yo'naltiruvchi va rag'batlantiruvchi rolida bo'lishi zarur.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni isbotlaydiki, ijobiy motivatsiyani shakllantirish — bu o'qituvchi tomonidan yaratiladigan emotsional qo'llab-quvvatlovchi muhit, rag'bat tizimi, va interfaol o'qitish metodlari uyg'unligiga asoslanadi. Bunday yondashuv talabanning mustaqil o'qish jarayonini mazmunan boyitadi, uning o'zini rivojlantirishga bo'lgan ichki ehtiyojini kuchaytiradi hamda ta'lim jarayonining sifat ko'rsatkichlarini oshiradi.

**XULOSA.** Pedagogik nuqtayi nazardan qaraganda, ijobiy motivatsiyani qo'llab-quvvatlash o'qituvchining shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, rag'batlantiruvchi baholash, va interfaol metodlardan samarali foydalanish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda o'qituvchi nafaqat bilim manbai, balki motivatsiya manbai sifatida talabanning shaxsiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Amaliy kuzatuvlar shuni tasdiqlaydiki, mustaqil ta'limda psixologik qo'llab-quvvatlash, ishonchli muhit, ijodiy topshiriqlar va axborot texnologiyalaridan foydalanish talabalarning ichki motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, hamda Oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalar bilan uyg'unlikda ishlash motivatsiyani yanada mustahkamlaydi.

Mustaqil ta'limda ijobiy motivatsiyani qo'llab-quvvatlash — bu o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, ishonch va rag'batlantirish tizimining uyg'unligini ta'minlashdir. Bunday yondashuv talabanning nafaqat bilim, balki hayotiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Abdurahmonova Q. "Pedagogik psixologiya", Toshkent: Fan, 2022.12-13-bet
2. G'ofurova N. "Motivatsiyani rivojlantirishning pedagogik asoslari", Toshkent, 2021. 22-bet
3. Deci, E. L., & Ryan, R. M. "Intrinsic motivation and self-determination in human behavior." Springer, 2017.34-bet
4. Xodjayev B. "Mustaqil ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar." Oliy ta'lim jurnali, 2023.45-bet
5. Hamroyeva M. "Talabalarda o'qishga motivatsiyani shakllantirishda pedagogik yondashuvlar." Ta'lim va innovatsiya, 2024.
6. **Ko'chkinova M. N., Rahmonova D. Ibrohim qizi, Rahmonova M. S.** Bo'lajak o'qituvchi kasbiy tayyorgarligiga doir etiket qoidalarini tarkib toptirishda muloqotning o'rni // *Educational Research in Universal Sciences.* – 2023. – T. 2. – № 14. – S. 778–783.
7. **Atamurodova Q. G.** Factors and means of individual spiritual development // *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal.* – 2021. – T. 11. – № 6. – S. 771–774.